



**UMURTQALARARO DISK CHURRASINI ANIQLASHDA MRT
TEKSHIRUVINING AFZALLIKLARI**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Tibbiy radiologiya kafedrasida assistenti

Xamidova Mohira Abrayevna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son Davolash fakulteti 2-kurs talabasi

Jo'rayeva Nurshodaxon Shuhrat qizi

Dolzarbli: Umurtqalararo disk churrasi (disk herniyasi) hozirgi kunda keng tarqalgan patologiyalardan biri bo'lib, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshdagi aholida uchraydi va bel og'rig'i hamda nevrologik asoratlarning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra bel og'rig'i bilan murojaat qilgan bemorlarning 60–80% ida disk degeneratsiyasi yoki churrasi aniqlanadi. Bunda nerv ildizlarining siqilishi-radikulopatiya, paresteziya va harakat cheklanishiga olib keladi, shu sababli kasallikni erta va aniq tashxislash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy radiologiyada eng samarali usullardan magnit-rezonans tomografiya MRT - kuchli magnit maydon va radiochastotali impulslar yordamida vodorod protonlarining rezonans javobini qayd etish orqali tasvir hosil qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Umurtqalararo disk churrasini aniqlashda MRT tekshiruvining diagnostik aniqligi va afzalliklarini baholash hamda uning klinik ahamiyatini o'rganish.

Materiallar va usullar: Tadqiqot davomida 20 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan, bel yoki bo'yin og'rig'i bilan murojaat qilgan 50 nafar bemor MRT



tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruvlar T1 va T2 o'g'irlashtirilgan tasvirlar orqali nucleus pulposus va annulus fibrosus tuzilishi, diskning degenerativ darajasi, protruziya, ekstruziya yoki sekvestratsiya mavjudligi, dural qop deformatsiyasi, nerv ildizining kompressiyasi, spinal kanal stenozini kabilar aniq baholandi va bemorlar klinik belgilariga ko'ra guruhlariga ajratildi va MRT natijalari bilan solishtirildi.

Natijalar: O'tkazilgan MRT tekshiruvlari natijasida 50 nafar bemorning 35 nafarida (70%) umurtqalararo disk churrasi aniqlanib, ularning 20 nafarida (40%) bel (lumbal) sohada, 10 nafarida (20%) bo'yin (servikal) sohada va 5 nafarida (10%) ko'krak (torakal) sohada joylashgani kuzatildi, churralarning 18 tasida (36%) protruzion shakl, 12 tasida (24%) ekstruziya va 5 tasida (10%) sekvestratsiya aniqlanib, 28 nafar bemorda (56%) nerv ildizlarining siqilishi belgilari qayd etildi. MRT usulining yumshoq to'qimalarni yuqori aniqlikda tasvirlashi sababli disk strukturasiidagi degenerativ o'zgarishlar, annulus fibrozus yirtilishi va pulpoz yadro siljishi aniq ko'rsatildi, umumiy diagnostik aniqlik 90–95% ni tashkil etdi.

Xulosa: MRT tekshiruvi umurtqalararo disk churrasini aniqlashda eng yuqori sezgirlik va spetsifiklikka ega bo'lgan, yumshoq to'qimalarni yuqori kontrastda ko'rsatish imkonini beruvchi, radiatsion yuklamasiz ishlaydigan xavfsiz diagnostik usul. Davolash taktikasini to'g'ri tanlashda, jumladan konservativ yoki jarrohlik usullarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun zamonaviy klinik protokollarda MRT disk churrasini tashxislashda "gold standard" deb qabul qilingan.